

**OLIY TA'LIMDA TA'LIM-TARBIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA
PEDAGOG KADRLARNING KREATIVLIGINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK
SHART-SHAROITLARI**

Ibadullayeva Nigora Egamberganovna

Urganch davlat universiteti. San'at kafedrasi katta o'qituvchisi;

ibadullayevanigora@gmail.com

O'tarova Mehribon

*Urganch davlat pedagogika instituti Muhandislik grafikasi va dizayn magistratura
mutaxassisligi 1-bosqich talabasi.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta'limda ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda pedagog kadrlarning kreativligini oshirishning ahamiyati haqida fikr bildirilgan. Shuningdek, pedagoglarning kreativlik sifatlariga ega bo'lishlari ularda o'quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalarni yaratish imkoniyatini berishi ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *pedagog kadrlarning innovatsion salohiyati, innovatsion texnologiya, kreativlik, kreativlik parametrlari, ijodkor shaxs, pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается значение повышения креативности педагогических кадров в повышении эффективности учебно-воспитательного процесса в высшем образовании. Также показано, что наличие креативных качеств у педагогов дает им возможность отходить от традиционных подходов к организации учебного процесса и создавать новые идеи.*

Ключевые слова: *инновационный потенциал педагогических кадров, инновационные технологии, креативность, параметры креативности, творческая личность, научно-исследовательская деятельность педагога.*

Annotation: *This article discusses the importance of enhancing the creativity of teaching staff in improving the effectiveness of education and training in higher education. It also highlights that possessing creative qualities enables educators to move away from traditional approaches to organizing the educational process and generate new ideas.*

Keywords: *innovative potential of teaching staff, innovative technology, creativity, creativity parameters, creative personality, scientific research activities of the educator.*

Dunyoga yangi ko'z bilan qaraydigan, uddaburon, ishning ko'zini biluvchi, buyuk kelajagimiz poydevorini quruvchi va yuksaltiruvchi mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Respublikamiz pedagoglari oldida turgan eng muhim va mas'uliyatli vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki, pedagog kadrlarning kreativ salohiyatini shakllantirish XXI asrda uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida pedagogika fani va amaliyotining dolzarb masalalaridan biriga aylandi.

Jahon miqyosida pedagog kadrlarning innovatsion salohiyati, akmeologik kompetentligi va ijodkorligini rivojlantirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning intellektual resurslarini yaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi globallashuv davri oliy ta'lim tizimiga yangi talablarni qo'ymoqda, uni mehnat bozorida talab etiladigan raqobatbardosh diplomli mutaxassislar tayyorlashga yo'naltirmoqda. Ona Vatanimiz O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq zamon talablariga javob bera oladigan, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash ishiga davlat siyosati darajasida e'tibor ko'rsatilib kelayotgani mamlakatimiz va xalqimiz istiqboli uchun, buyuk kelajakni barpo etishdek strategik maqsadga erishmog'imiz uchun bu masala qanchalik darajada dolzarb ekaniga dalil bo'la oladi.

Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining kreativ salohiyatini shakllantirishning diagnostik tizimini takomillashtirish, kreativ salohiyatni rivojlantirishning metodik tizimini ishlab chiqish, muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kreativlik individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyatidir.

Shaxsning ijodiy potensialini rivojlantirish sohasidagi natijalarni o'zida umumlashtirgan kreativ pedagogika ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu sohada Uolles (Graham Wallas), Osborn (Alex Osborn), Gordon (Gordon), Gilford (J.P. Guilford), Parnes (Sid Parnes), Torrans (Ellis Paul Torrance), Devis (Gary Davis), Genrix Altshuller kabi tadqiqotchilar katta ilmiy izlanishlar olib bordilar.

Ko'pchilik konsepsiyalarda (Dj. Gilford, P.Torrens, N.Rodgers, E.Fromm, N.S.Leytes, V.N.Drujinin) iqtidorlik va uning rivojlantiruvchi asoslari shaxs kreativligi tushunchasi bilan ifodalanuvchi ijodiy imkoniyatlari va qobiliyatlari orqali tavsiflanadi. Kreativ fikrlash muloqotda, faoliyatning alohida turlarida namoyon bo'lishi mumkin. U umumiy holatda shaxs yoki uning alohida qobiliyatlarini tavsiflashi mumkin.

Kreativlik parametrlarini quyidagilar tashkil qiladi:

1) muammolarni topa olish va ularni qo'ya olish; 2) ko'plab yangi g'oyalarni yarata olish; 3) turli g'oyalarni birlashtirgan holda uyg'unlashtira olish; 4) originallik – mavjud savollarga nostandart holda javob bera olish qobiliyati; 5) ob'ektni turli detallarni qo'shgan holda takomillashtira olish qobiliyati; 6) analiz va sintez asosida turli muammolarni hal qila olish qobiliyati.

Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida

muammoni aniqlash; muammo echimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi.

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi. Oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kreativlik sifatlariga ega bo'lishlari ularda o'quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg'or, talabalarning o'quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish, ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo'lishga e'tibor qaratadi.

Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi.

Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega.

Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potensialini yanada rivojlantiradi.

Zamonaviy ta'lim barcha turdagi ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchi, pedagoglarning ijodkor bo'lishlarini taqozo etmoqda.

Psixologiyada kreativlik muammosi asosan to'rt yo'nalishda o'rganilgan: jarayon, natija, qobiliyat, shaxsning xususiyati sifatida.

Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o'z mohiyatiga ko'ra jarayon tarzda namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, kasbiy tajriba bilim, ko'nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, kasbiy-ijodiy faoliyat ko'nikmalarining o'zlashtirilishi nafaqat amaliy ko'nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo'lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va

kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining etarli darajada o'zlashtirilishini talab etadi.

Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin.

Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatleri, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Башина Т.Ф., Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: Питер, 2009.
2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
3. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари / Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфулов Д.М., Тўраев А.Б. – Тошкент, 2015. – 120 бет.
4. Torrance, E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. Personnel Press. 1974.
5. Файзуллаева Н. Педагогик билимлар – ўқитувчи касбий маҳоратининг назарий асоси //Uzluksiz ta'lim ж. – Т.: 2006. 6-сон. – 102-б.
6. Гладышев Г.М. Педагогические условия развития духовно-творческого потенциала будущего художника-педагога: Автореф. дис. канд. пед. наук, Оренбург, 2000.
7. Ибадуллаева, Н. 2024. Развитие художественно-творческих компетенций студентов изобразительного художественного образования. Общество и инновации. 5, 10/S (окт. 2024), 55–62. DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss10/S-pp55-62>.
8. Ibadullayeva N.E. Tasviriy san'at ta'limida talabalarning badiiy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda kompyuter grafikasi imkoniyatlaridan foydalanish. International scientific and practical conference on the topic: "Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions". Vol.1.No.01.20.november.2023.Qarshi-2023.(2023): <https://ojs.qarshidu.uz/index.php/ts/article/view/206>
9. Ibadullayeva N.E. Talabalarning badiiy va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda rangtasvirdan mustaqil badiiy va ijodiy faoliyatni tashkil etishning ahamiyati. Integratsiyalashgan ta'lim va tadqiqotlar jurnali. Journal of integrated education and research. ISSN 2181-3558.VOLUME 2, issue 6.collection b june 2023. 42-46 betlar. <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/issue/view/29/50>